

## AUTIZM SPEKTORLI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY-KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA ABA TEXNOLOGIYALARINING AMALIY SAMARADORLIGI

**Xamrayeva Iroda Sayfullayevna,**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Oligofrenopedagogika kafedrasida dotsenti, PhD*

**Genjebaeva Ario'xan Kazakbay qizi,**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti  
Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti  
Oligofrenopedagogika yo'nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada autizm spektor buzilishiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda amaliy xulq-atvor tahliliga asoslangan texnologiyalarning samaradorligi yoritiladi. Tadqiqot jarayonida maxsus ishlab chiqilgan korreksion mashg'ulotlar orqali bolalarda ko'z bilan aloqa, salomlashish, navbat kutish hamda oddiy kommunikativ murojaatlarni shakllantirish ishlari olib borildi. Olingan natijalar mazkur yondashuvning bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

**Kalit so'zlar:** autizm, ABA texnologiya, ijtimoiylashuv, kommunikatsiya, xulq-atvor, shaping, ijtimoiy moslashuv, korreksion ta'lim, ijtimoiy xulq shakllanishi.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается эффективность технологий, основанных на прикладном анализе поведения, в развитии социально-коммуникативных навыков у учащихся начальных классов с расстройствами аутистического спектра. В ходе исследования были проведены специально разработанные коррекционные занятия, направленные на формирование у детей зрительного контакта, навыков приветствия, умения ждать своей очереди, а также элементарных коммуникативных обращений. Полученные результаты подтверждают положительное влияние данного подхода на процесс социализации детей.

**Ключевые слова:** аутизм, АВА-технология, социализация, коммуникация, поведение, shaping, социальная адаптация, коррекционное обучение, формирование социального поведения.

**Abstract.** This article examines the effectiveness of applied behavior analysis-based technologies in developing social and communicative skills in primary school children with autism spectrum disorder. In the course of the study, specially designed corrective exercises were used to develop eye contact, greetings, waiting in line, and simple communicative appeals in children. The results obtained confirm that this approach has a positive effect on the socialization process of children.

**Keywords:** autism, ABA technology, socialization, communication, behavior, shaping, social adaptation, corrective education, social behavior formation.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida autizm spektor buzilishiga ega bolalar bilan ishlash muammosi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunday bolalarda ijtimoiy muhitga moslashish, muloqotga kirishish va oddiy ijtimoiy qoidalarni tushunish jarayoni murakkab kechadi. Ayniqsa boshlang'ich sinf davrida ushbu qiyinchiliklar yanada yaqqol namoyon bo'lib, bolaning o'quv jarayoniga to'laqonli jalb etilishiga to'sqinlik qiladi.

Zamonaviy pedagogika va maxsus ta'lim tizimida inklyuziv yondashuvning kengayib borishi autizm spektor buzilishiga ega bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtirokini ta'minlashni muhim vazifalardan biriga aylantirmoqda. So'nggi yillarda dunyo miqyosida autizm spektor buzilishlari uchrash chastotasining ortib borayotgani ushbu toifadagi

bolalar bilan ishlash metodikalarini takomillashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, autizm spektor buzilishi nafaqat rivojlangan davlatlarda, balki rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng tarqalib bormoqda, bu esa ta'lim tizimi oldiga yangi talablarni qo'yimoqda.

Autizm spektor buzilishiga ega bolalarning rivojlanishidagi asosiy qiyinchiliklar ijtimoiy o'zaro ta'sir va kommunikatsiya sohasida namoyon bo'ladi. Ular ko'pincha atrof-muhitdagi ijtimoiy signallarni to'g'ri qabul qila olmaydi, nutqiy va noverbal muloqotda cheklanishlarga ega bo'ladi. Natijada, bunday bolalarning tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi va o'quv topshiriqlarini bajarishi murakkablashadi. Bu holat ularning nafaqat akademik rivojlanishiga, balki shaxs sifatida shakllanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Boshlang'ich sinf davri esa bolaning ijtimoiy tajriba orttirishi, kommunikativ kompetensiyalarni egallashi va mustaqil faoliyatga o'tishi uchun eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda shakllangan ijtimoiy ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish va jamiyatga moslashuv uchun poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli autizm spektorli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va texnologiyalarni izlash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, amaliy xulq-atvor tahliliga asoslangan (ABA) texnologiyalar nafaqat xorijiy tajribada, balki milliy pedagogik amaliyotda ham o'zining yuqori samaradorligi bilan e'tibor qozonmoqda. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u individual yondashuvni ta'minlaydi, xulq-atvorni tizimli ravishda shakllantirish imkonini beradi hamda natijalarni aniq kuzatish va baholashga yordam beradi. Ayniqsa, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oddiy, ammo muhim ko'nikmalarni (ko'z bilan aloqa, murojaat qilish, ijtimoiy javob qaytarish) bosqichma-bosqich shakllantirishda ushbu texnologiyalar katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Autizm spektor buzilishiga ega bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish masalasi so'nggi o'n yilliklarda pedagogika, psixologiya va defektologiya fanlari doirasida keng o'rganilayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, autizmli bolalarning rivojlanishidagi asosiy qiyinchiliklar aynan ijtimoiy o'zaro ta'sir va kommunikativ faoliyatning yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog'liq. Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar orasida amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) yondashuviga asos solgan I. Lovaasning ishlari alohida o'rin egallaydi. Uning tadqiqotlarida autizmli bolalar bilan erta va intensiv xulq-atvor terapiyasini qo'llash orqali ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkinligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Keyinchalik J. Cooper, T. Heron va W. Heward tomonidan ABA nazariyasi tizimlashtirilib, xulq-atvorni shakllantirish, mustahkamlash va modifikatsiya qilish mexanizmlari batafsil yoritib berilgan.

Shuningdek, T. Smith tomonidan olib borilgan izlanishlarda erta yoshdan boshlab qo'llanilgan intensiv ABA dasturlari bolalarning ijtimoiylashuv darajasini oshirishda muhim omil ekanligi ta'kidlangan. A. Kazdin esa xulq-atvorni modifikatsiya qilishning amaliy jihatlarini keng yoritib, ijobiy mustahkamlash, shaping va prompt kabi texnikalarning samaradorligini asoslab bergan. Ushbu yondashuvlar autizm spektor buzilishiga ega bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

Bundan tashqari, American Psychiatric Association tomonidan ishlab chiqilgan DSM-5 tasnifida autizm spektor buzilishining asosiy diagnostik mezonlari sifatida ijtimoiy kommunikatsiya va xulq-atvorning cheklanganligi alohida qayd etilgan. Bu esa mazkur yo'nalishda korreksion-pedagogik ishlarni tashkil etishda aynan ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish ustuvor vazifa ekanligini ko'rsatadi.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ham mazkur muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi. Xususan, R.A. Mavlonova o'z pedagogik qarashlarida bolani shaxs sifatida rivojlantirishda ijtimoiy muhit va tarbiyaning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har qanday rivojlanish nuqsoniga ega bolalar bilan ishlashda individual yondashuv va tizimli pedagogik ta'sir muhim ahamiyat kasb etadi. Defektologiya yo'nalishidagi mahalliy tadqiqotlarda ham autizmli bolalar bilan ishlashda korreksion ta'limning mazmunini boyitish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish zarurligi qayd etilgan. Jumladan, logopedik va oligofrenopedagogik tadqiqotlarda nutq rivojlanishi bilan ijtimoiy kommunikatsiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asoslab berilib, kommunikativ faoliyatni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab etishi ko'rsatiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy ishlar doirasida autizm spektorli bolalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ABA elementlarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatishda o'yin texnologiyalari va vizual qo'llanmalar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy ilmiy manbalarda autizmli bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning turli yondashuvlari mavjud bo'lsa-da, ular orasida ABA texnologiyalari o'zining tizimliliigi, amaliy yo'naltirilganligi va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, shaping, ijobiy mustahkamlash va individual dasturlashtirilgan yondashuvlar bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishda eng samarali vositalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili mazkur yo'nalishda hali yetarlicha o'rganilmagan jihatlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, ABA texnologiyalarini milliy ta'lim tizimi sharoitiga moslashtirish, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashning metodik asoslarini takomillashtirish hamda ularning uzoq muddatli samaradorligini aniqlash dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda autizm spektor buzilishiga ega boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish jarayoni amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) yondashuvi asosida o'rganildi. Tadqiqot eksperimental xarakterga ega bo'lib, unda individual yondashuv tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot ishtirokchilari sifatida autizm spektor buzilishiga ega 6–10 yoshdagi boshlang'ich sinf o'quvchilari jalb etildi. Dastlab diagnostik bosqichda bolalarning ijtimoiy-kommunikativ rivojlanish darajasi kuzatish, suhbat va maxsus baholash mezonlari asosida aniqlab olindi.

Keyingi bosqichda ABA texnologiyalariga asoslangan korreksion mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Mashg'ulotlarda shaping, ijobiy mustahkamlash (reinforcement), prompting va fading kabi metodlardan foydalanildi. Har bir ko'nikma (ko'z bilan aloqa, salomlashish, navbat kutish, kommunikativ murojaat) bosqichma-bosqich shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida kuzatish, pedagogik eksperiment va natijalarni solishtirma tahlil qilish metodlari qo'llanildi. Olingan natijalar boshlang'ich va yakuniy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinib, ABA texnologiyalarining samaradorligi baholandi.

**Natija va muhokama.** Autizm spektorli bolalarda ko'pincha ko'z bilan aloqa qilishdan qochish, salomlashish odatining shakllanmaganligi, navbat kutishdagi qiyinchiliklar hamda ehtiyojlarini ifodalashda sustlik kuzatiladi. Bu esa nafaqat ta'lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muammolarni keltirib chiqaradi. Shu sababli ularning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish maxsus yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, amaliy xulq-atvor tahliliga asoslangan ABA texnologiyalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali bolalarda kerakli xulq-atvorni bosqichma-bosqich shakllantirish imkoniyati mavjud. Ushbu maqolada aynan shu yondashuvning amaliy samaradorligi o'rganiladi.

Amaliy xulq-atvor tahlili asosida ishlash g'oyasi xulq-atvorni ilmiy asosda o'rganish va boshqarish tamoyillariga tayanadi. Ushbu yondashuvning rivojlanishida Ivar Lovaas tomonidan olib borilgan tadqiqotlar muhim o'rin egallaydi. U tomonidan taklif etilgan metodika bolalarda ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda samarali natijalar berishi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlar ham ABA texnologiyalarining autizmlil bolalar bilan ishlashda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa shaping texnikasi orqali murakkab xulq-atvorlarni kichik bosqichlarga ajratish va har bir bosqichni mustahkamlash amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Bu esa bolalarda o'zlashtirish jarayonini soddalashtiradi va natijani tezlashtiradi.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham autizmlil bolalar bilan individual yondashuv asosida ishlash zarurligi ta'kidlanib, ABA texnologiyalarining qo'llanilishi ijobiy baholanadi.

Mazkur tadqiqot autizm spektorli boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida bolalarning ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg'ulotlar tizimi ishlab chiqildi. Mashg'ulotlar individual yondashuv asosida tashkil etilib, har bir bolaning rivojlanish darajasi inobatga olindi. Tadqiqot davomida shaping texnikasiga asoslangan bir nechta metodikalar qo'llanildi. Jumladan, ko'z bilan aloqa o'rnatishni rivojlantirish, salomlashish odatini shakllantirish, navbat kutish ko'nikmasini hosil qilish hamda oddiy murojaatlarni ifodalashga o'rgatish bo'yicha mashg'ulotlar olib borildi. Har bir ko'nikma bosqichma-bosqich shakllantirilib, to'g'ri bajarilgan harakatlar ijobiy mustahkamlash orqali rag'batlantirildi. Mashg'ulotlar jarayonida og'zaki maqtoov, kichik sovg'alar va o'yin elementlaridan foydalanildi. Shu orqali bolalarda motivatsiya oshirildi va mashg'ulotlarga qiziqish kuchaytirildi. O'tkazilgan mashg'ulotlar natijasida bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarining sezilarli darajada rivojlangani kuzatildi. Dastlab ko'z bilan aloqa qilishdan qochgan bolalar mashg'ulotlar davomida asta-sekin qarashni boshladi va vaqt o'tishi bilan bu ko'nikma mustahkamlandi. Ayrim bolalar qisqa muddatli aloqa bilan cheklangan bo'lsa, boshqalarida bu jarayon yanada barqaror tus oldi.

Salomlashish ko'nikmasi ham bosqichma-bosqich shakllantirildi. Dastlab oddiy harakatlar rag'batlantirilib, keyinchalik to'liq salomlashish talab qilindi. Natijada bolalar o'qituvchi va tengdoshlari bilan muloqot boshlashga nisbatan faolroq bo'la boshladi.

Navbat kutish ko'nikmasi ustida ishlash jarayonida bolalarda sabr qilish va tartibga rioya qilish xatti-harakatlari shakllandi. Dastlab qisqa vaqt kutish bilan boshlangan mashg'ulotlar keyinchalik murakkablashtirildi va bolalar asta-sekin uzoqroq vaqt kutishga o'rgandi. Kommunikativ murojaatlarni shakllantirish jarayonida bolalar o'z ehtiyojlarini ifodalashga harakat qila boshladi. Avval imo-ishora orqali, keyinchalik esa so'z va qisqa iboralar orqali murojaat qilish ko'nikmasi rivojlandi.

Umuman olganda, mashg'ulotlar natijasida bolalarning ijtimoiy faolligi oshdi, muloqotga kirishish darajasi yaxshilandi va ularning o'zini tutishida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ABA texnologiyalariga asoslangan yondashuv autizm spektorli bolalarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda samarali hisoblanadi. Ayniqsa shaping texnikasi orqali murakkab ko'nikmalarni kichik bosqichlarga ajratish bolalar uchun tushunarli va qulay bo'ldi. Pedagog tomonidan berilgan yordamning bosqichma-bosqich kamaytirilishi bolalarda mustaqil harakat qilishni rivojlantirdi. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirdi va ijtimoiy muhitga moslashuvini yengillashtirdi.

Shuningdek, ijobiy mustahkamlash usullarining qo'llanilishi bolalarda motivatsiyani oshirishda muhim omil bo'ldi. Rag'batlantirish orqali bolalar kerakli xulq-atvorni tezroq o'zlashtirdi va uni mustahkamladi. Tadqiqot natijalari autizm spektorli boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda ABA texnologiyalarining yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv

orqali bolalarda ko‘z bilan aloqa qilish, salomlashish, navbat kutish va murojaat qilish kabi muhim ko‘nikmalar shakllandi. Mazkur metodikalarni ta‘lim jarayoniga keng joriy etish orqali autizmli bolalarning ijtimoiylashuv darajasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu boisdan ABA texnologiyalarini amaliyotda qo‘llashni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa.** Autizm spektor buzilishiga ega boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish murakkab, ammo tizimli yondashuvni talab etadigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Amaliy xulq-atvor tahliliga asoslangan (ABA) texnologiyalar mazkur jarayonni ilmiy asosda tashkil etish, xulq-atvorni bosqichma-bosqich modellashtirish hamda barqaror ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

ABA yondashuviga xos bo‘lgan shaping, ijobiy mustahkamlash, prompting va fading kabi metodlar ijtimoiy ahamiyatga ega xatti-harakatlarni izchil rivojlantirish, ularni mustahkamlash va mustaqil faoliyat darajasiga olib chiqishda muhim didaktik mexanizm vazifasini bajaradi. Ushbu texnologiyalarning qo‘llanilishi ijtimoiy o‘zaro ta‘sir elementlari — ko‘z bilan aloqa, salomlashish, navbat kutish va kommunikativ murojaatlarni — izchil va tushunarli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur yondashuvning muhim jihatlaridan biri individual yondashuvni ta‘minlashi, har bir o‘quvchining rivojlanish darajasi va ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta‘limiy-korreksion jarayonni tashkil etish imkoniyatini yaratishidir. Shu bilan birga, ijobiy mustahkamlashga asoslangan pedagogik ta‘sir bolalarda o‘quv motivatsiyasini kuchaytiradi, ijtimoiy faoliyatga nisbatan qiziqishni oshiradi va o‘zini tutishning ijobiy modellarini barqarorlashtiradi. Shu asosda, ABA texnologiyalari autizm spektorli boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiylashuv jarayonini optimallashtirish, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish hamda ularni ta‘lim muhitiga samarali integratsiyalashning muhim pedagogik omillaridan biri sifatida e‘tirof etiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lovaas I.O. Behavioral treatment and normal educational and intellectual functioning in young autistic children // Journal of Consulting and Clinical Psychology. – 1987. – Vol. 55, №1. – P. 3–9.
2. Cooper J.O., Heron T.E., Heward W.L. Applied Behavior Analysis. – 2nd ed. – Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2007. – 720 p.
3. Smith T. Early and intensive behavioral intervention in autism // American Journal on Mental Retardation. – 1999. – Vol. 104, №4. – P. 269–285.
4. Kazdin A.E. Behavior modification in applied settings. – 7th ed. – Long Grove: Waveland Press, 2012. – 480 p.
5. American Psychiatric Association. Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (DSM-5). – Washington, DC: APA, 2013. – 947 p.
6. National Research Council. Educating Children with Autism. – Washington, DC: National Academy Press, 2001. – 307 p.